

ITALIYADA UYG'ONISH DAVRINING VUJUDGA KELISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Vahidov Suxrobjon Olimjon o'g'li

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi

“Barkamol avlod” Respublika bolalar maktabi Hududlar bilan ishlash va monitoring
qilish bo'limi uslubchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yevropa taraqqiyotining sabablarini ochib berish, o'rganish, tahlil qilish, solishtirish, shuningdek, Italiyada uyg'onish davrining vujudga kelishi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zi: Yevropa, Italiya, Florensiya, uyg'onish davri, gumanizm, Jotto di Bondone.

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрываются, изучаются, анализируются и сравниваются причины европейского развития, а также комментируются возникновение эпохи Возрождения в Италии и ее характеристики.

Ключевые слова: Европа, Италия, Флоренция, Возрождение, гуманизм, Джотто ди Бондоне.

ABSTRACT

This article reveals, studies, analyzes and compares the causes of European development, as well as comments on the emergence of the Renaissance in Italy and its characteristics.

Keywords: Europe, Italy, Florence, Renaissance, humanism, Giotto di Bondone.

KIRISH

Feodal jamiyati qo'ynida kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi G'arbiy Yevropa hayotida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Din o'z obro'sini yo'qota bordi, mayda hunarmandchilikdan manufakturaga o'tish, shaharlarning tezlik bilan kengayib, rivojlanib borishi, yangi qit'alarning ochilishi va savdo-sotiqning rivojlanishi ijtimoiy hayot qiyofasini ham, odamlarning hayotga, voqelikka bo'lgan munosabatini ham o'zgartira boshladi [1].

Bu davrga kelib, «qirol hokimiyati shahar aholisiga suyanib, feodal dvoryanlarning qudratini sindirib tashladi va yirik-yirik, aslida millatlarga asoslangan monarxiyalar tuzdi, bu monarxiyalarda hozirgi zamon Yevropa millatlari va hozirgi zamon burjua jamiyati taraqqiy eta boshladi». Ana shu taraqqiyot jarayonida yangi dunyoviy san'at va madaniyat kamol topdi. Kitob bosishning vujudga kelishi adabiy va ilmiy asarlarni keng tarqatish imkoniyatini yaratdi. Mamlakatlar orasidagi yaqin

munosabatlar esa badiiy hayotdagi yangiliklarni tezda o'zlashtirish imkonini tug'dirdi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'z taraqqiyotini XV—XVI asrlarda boshidan kechirgan bu yangi madaniyat tarixda «uyg'onish» deb nom oldi. Bu iborani italiyalik rassom va san'atshunos Jorjio Vazari Italiyada san'at uzoq o'rta asrdan so'ng yana qaytadan «uyg'onganligi» sababli ishlatgan va asosan, Jotto ijodiga nisbatan qo'llangan edi. Keyinchalik esa, bu keng mazmun kasb etib, Italiyada, so'ngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan, feodalizm asridan farq qiladigan san'atni ta'riflash uchun qo'llanila boshlandi [3].

Albatta, Uyg'onish davri taraqqiyoti hamma mamlakatlarda bir xil bo'lmadi. Masalan, Germaniya so'nggi Uyg'onish, Niderlandiya esa yuqori Uyg'onish davri taraqqiyotini boshidan kechirmagan. Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim bosqich edi: «Bu — insoniyat shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarish edi, bu shunday davr ediki, bu davr ulug' siymolarga muhtoj edi va bu davr o'z tafakkur kuchi, ehtiros va xarakteri jihatidan, mukammallik va olimlik jihatidan juda ulug' siymolarni yetishtirib berdi». Dunyoviy san'at va madaniyat misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Uyg'onish davri kishilari insonning aql-idrokiga, imkoniyatining cheksizligiga, ma'rifatning kelajakdagi tantanasiga ishonidilar. Uz izlanishlarining markaziga esa shu insonni qo'yidilar. Natijada ular chin ma'noda xalqchil asarlar yarata oldilar, keng xalq ommasining orzu-istak, his-tuyg'ularini ifodalab, ilg'or gumanistik g'oyalarni ko'tarib chiqdilar. Shu boisdan ham bu davr «gumanizm asri» (humanism lotincha insoniy, insonparvar) deb ataldi [4].

Italiyaning Sharq va G'arb orasidagi muhim savdo yo'lida joylashishni unda kapitalistik munosabatlarning juda erta shakllanishiga olib keldi. Savdo-sotiqning rivojlanishi, o'zga yurtlar bilan aloqasining intensivligi hunarmandchilikning rivojlanishiga zamin yaratdi. Feodal munosabatlarning zaifligi esa bu erda yangi siyosiy tartibni shahar-respublika tartibining paydo bo'lishiga va Italiyaning Yevropada birinchi bo'lib kapitalistik mamlakatga aytanishiga imkon berdi. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan bu xususiyat san'at va madaniyatda o'z ifodasini topdi. Bu o'zgarish savdo va ishlab chiqarish rivojlangan O'rta Italiyada joylashgan Florensiya, Piza, Sienada hamda Shimoliy qismidagi Genuya, Milan, ayniqsa, savdogar va bankirlar respublikasi bo'lgan Venetsiyada juda sezilarli bo'ldi [5].

Yangi davr san'atining xarakterli belgilari dastlab adabiyotda ko'rina boshladi. Bu xususiyat, ayniqsa, «O'rta asrning eng oxirgi va shu bilan birga, yangi zamonning eng avvalgi shoiri» Dante Aligeri (1265—1321) ijodida namoyon bo'ldi. Gumanist

yoʻzuvchi ijodi hali oʻrta asr allegorizmidan xoli emas, simvolik tasvirlar mavjud boʻlsa ham, lekin shu shakllarda sanʼatkorning diniy syujetlarni real voqelik bilan bogʻlashga intilishi seziladi. Albatta, bu hol asta-sekin kamayib, dastlabki gumanist yoʻzuvchi va shoirlar Petrarka va Bakachcho asarlarida mavhum simvolik iboralar ikkinchi oʻringa qoʻyilib, realizm esa birinchi oʻringa chiqarildi, voqelikni xarakterli detallar bilan aks ettirishga kirishildi.

Ijobiy qahramonlarning xarakterli beqiyos jasorat va mardlik mujassamlashadi. Shaxs erkini himoya qilgan gumanistlar oʻz kuch-qudratiga, haq ishning tantana qilishiga ishongan, adolat uchun kurashuvchi, qalbi pok, olijanob obrazlarni yaratish orqali Uygʻonish davrining hayotbaxsh ruhini aks ettiradilar. Tasviriy sanʼatda bu xususiyat dastlab haykaltaroshlikda Nikola **Pizano** (1220/1225—1278/84), rassomlikda **Chimabue**, (1240/50—1302), **Duchcho di Buoninsenya** (1255—1319) lar ijodida koʻrina boshladi [6].

Haykaltarosh N.Pizanoning ilk asari Pizadagi baptisteriya minbari atrofiga ishlangan boʻrtma tasvirlar boʻlib, unda Iso hayotidan olingan voqealar aks ettirilgan. Bu tasvirlar oʻzining dunyoviyligi, koʻrinishi jihatidan yerdagi oddiy hayotni eslatishi bilan xarakterlanadi. U yerda tasvirlangan odamlar qiyofasi rimlik taqvodorlarga oʻxshab ketadi. Ularning koʻrinishlari vazmin va ulugʻvor, ishlangan buyumlarning materiali va hajmini koʻrsatishga eʼtibor berilgan. Nikola Pizanoning ijodi Italiya haykaltaroshligining rivojlanishida muhim rol oʻynadi, uning taʼsirida qator sanʼatkorlar kamol topdi. Shular orasida **Arnolfo di Kambio** (tax. 1240—1302), **Jovanni Pizano** (tax. 1250—1317) mashhurdir [7].

Jovanni Pizano haykaltaroshlik sirlarini oʻz otasi Nikola Pizanodan oʻrgangani holda, protorenessans haykaltaroshligini Uygʻonish davri sanʼatiga yaqinlashtirdi. U oʻz ijodida protorenessans haykaltaroshligiga xos qotib qolgan sunʼiylikdan qochib, unga zamon ruhini kiritdi, harakatni kuchaytirdi, ularning hayotiy tomonlarini oshirdi. Jovanni haykaltarosh va meʼmor sifatida ijod qildi, sobor va cherkovlar qurish ishlarida qatnashdi. Minbarlar uchun relef, ibodatxona tokchalariga qoʻyish uchun haykallar ishladi. Bu relef va haykallar harakatda, kuchli his-hayajon bilan ishlangan. Shu oʻrinda uning «Butga mixlangan», «Chaqaloqlarni chavoqlash» kompozitsiyalari xarakterli [8].

XII asrning oxirlarida Florensiya Italiyadagi yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq markaziga aylandi. Siyosiy hokimiyat hunarmandlar va savdogarlar qoʻliga oʻtdi. Ishchilar bir korxonaga toʻplandi. Mehnat taqsimotining oʻziga xos koʻrinishi kapitalistik munosabatlar yuzaga keldi. Endilikda aql-farosatli, ijodkor inson imkoniyatlariga qiziqish kuchaydi. Dantening vatani boʻlgan Florensiyada tasviriy sanʼatdagi shu yangi xislatlar—realistik mazmunni ifodalashga intilish rivojlandi [9].

Soʻzsiz, Uygʻonish davrining yirik rassomi, protorenessans rangtasvir sanʼatining buyuk islohotchisi Chimabuening shogirdi **Jotto di Bondone** (1266/67—1337) hisoblanadi. Shakllanib kelayotgan yangi ziyolilarning tipik vakili, realistik sanʼatining asoschilaridan biri, rassom-haykaltarosh, meʼmor Jotto oʻzidan avvalgi va oʻzi yashagan davrdagi realistik sanʼat borasida erishilgan yutuqlarni chuqur oʻzlashtirgan holda, uni yangi pogʻonaga koʻtardi. Jotto kompozitsiyalari asosida, asosan, diniy mavzu yotsa ham, lekin shu afsonaviy voqealarni yangi mazmun bilan, shu davrda shakllanib kelayotgan yangi madaniyat talablari mazmuni bilan uzviy bogʻliq holda namoyon etadi. Uning asarlarida real inson butun borligʻi bilan tasvirlanadi, uning jasorati, olijanoblighi, insonparvarligi kuylanadi. Rassomning muhim asarlaridan biri, Paduyadagi del Arena kapellasiga ishlangan devoriy suratidir. Bu suratda sanʼatkorning grajdanlik pozitsiyasi, yuksak badiiy mahorati namoyon boʻldi. Suratlarda Bibi Maryam va Iso hayoti tasvirlanadi. Lekin, diniy voqealar sanʼatkor tomonidan real voqeadek ifodalanadi. Natijada uning obrazlari his-tuygu, kuch-quvvatga toʻla real kishilarni eslatadi. Rassomning muhim yutuqlaridan biri shundaki, u oʻz qahramonlarining xarakterini, ularning maʼnaviy dunyosi, xatti-harakati, oʻzini tutishi va tashqi qiyofasida koʻrsatadi. Bu xususda «Ioximning choʻponlar orasiga qaytishi», «Iuda boʻsasi», «Isoga aza tutish» kabi suratlari xarakterlidir [10].

«Iuda boʻsasi» kompozitsiyasi markazida Iso va uning sotqin shogirdi Iuda tasvirlanadi. Isoning ochiq chehrasi, oʻzini xotirjam va ulugʻvor tutishida nuroniylik sezilib turadi. Aksincha, oʻzining yomon niyatlarini yashirishga intilgan, lekin bu niyatlari uning xunuk tashqi qiyofasida ham namoyon boʻlgan, Iuda obrazida esa sotqin, xalq nafratiga duchor boʻlgan shaxs gavdalanadi [11].

Jotto oʻz ijodi bilan Uygʻonish davri realistik rangtasvirining asosiy yoʻnalishini boshlab berdi. Insonga ishonch, insoniylikni ulugʻlash kabi qarashlar keyingi davr rassomlarini realistik sanʼatning yangi ifoda va tasvir vositalarini izlashga daʼvat etdi. Uning zamondoshlari, undan keyingi sanʼatkorlar ham Jotto ijodini namuna maktabi deb bildilar [12].

XIII asr oxiri—XIV asrning birinchi yarmida protorenessans sanʼati rivoj topdi. Bu paytlarda Siena boy bankirlar shahri edi. Shu muhitda yaratilgan sanʼat asarlari Florensiya badiiy maktabidan farqli oʻlaroq birmuncha aristokratik, nafis va dekorativligi bilan farqlanadi. Toʻgʻri, Siena maktabi rivojida florensiyalik rassomlarning, ayniqsa, Chimabue, Jottolarning roli sezilarli boʻldi. Lekin bu sienalik rassomlarning oʻziga xos protorenessans davri sanʼatini yaratishlariga xalaqit bermadi. Sienalik shunday rassomlardan biri **Duchcho di Buoninsenya** (tax. 1255—1319) hisoblanadi [13].

Uning asarlaridagi obrazlar xatti-harakatida tabiiylik, ularning qiyofalari, qarashlarida mayin insoniylik, tuyg'ulari sezilib turadi. Rassom har bir obrazni zo'r ishtiyoq bilan ishlaydi, har bir detalning tugal va aniq bo'lishiga e'tibor beradi. Duchchoning mashhur asari sobor mehrobi uchun ishlangan surati hisoblanadi. Bibi Maryam va Iso tarixiga bag'ishlangan bu katta kompozitsiya (eni 4,24 m, balandligi 4 m ga yaqin) markazida chaqaloq ko'tarib o'tirgan Bibi Maryam, uning atrofida avliyo va farishtalar aks ettirilgan. Rassom bu asarida ham hikoyanavislikka katta e'tibor beradi, nur, rang, chiziqlarning emotsional imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Bibi Maryam va Iso hayotiga bag'ishlangan syujet kompyzitsiyalari, ayniqsa, hayotiy va jonli chiqqan [14].

Sienalik san'atkor Simone **Martini** (tax. 1284-1344) ijodida ham shu Siena maktabiga xos xususiyatlar — voqelikni poetik va emotsional talqin etish, serjilolik va nafislik mavjud. Uning asarlarida rang muhim o'rinni egallaydi va estetik emotsional tomonini belgilashda etakchi rol o'ynaydi. Simone Martini Italiyaning ko'pgina shaharlarida ijod qilib, diniy mavzudagi asarlari bilan birga hayotiy voqealarga bag'ishlangan asarlar yaratdi, portret ishladi. Shular ichida yollangan harbiy qo'mondon Gvidorichche da Folyanoga bag'ishlangan devoriy surati mashhurdir [15].

Protorenessans realizmining rivojlanishi haqida gap borganda, Ambrodjo Lorensetti (XIV asr) nomini eslamay bo'lmaydi. U ko'pgina sienalik ustalar kabi Jotto ijodiy yutuqlaridan foydalanib, asarlar yaratishga harakat qildi, perspektiva, yagona qarash nuqtasi masalalari bilan qiziqdi, real tarixiy muhit, konkret tabiat ko'rinishlarini tasvirlashga harakat qildi, o'z kompozitsiyalariga yarim yalang'och ayol obrazini kiritdi. Bular sienalik ustalar ijodida antik san'at bilan aloqa kuchayib borayotganligi va renessans san'ati prinsiplarining mustahkamlanib borayotganligini ko'rsatadi.

XULOSA

Italiya uyg'onishi Yevropadagi boshqa davlatlarning keyingi davrdagi fan va madaniyatdagi rivojiga turtki bo'ldi. XVI asrdan boshlab Yevropaning boshqa qismlarida ham san'at, adabiyot, ishlab chiqarish rivojlana boshladi. Italiya uyg'onishi hamda fandagi yutuqlar va xususan shu davrda ijod qilgan ijodkorlar keyingi ijodkorlarning ustozlariga aylandilar. Ularning san'atdagi uslublari an'anaga aylandi. O'rta asr uyg'onishi bugungi taraqqiyotning debochasi vazifasini o'tab berdi. Hozirgi kunda ham ushbu san'at na'munalari o'z qiymatini also yo'qotgani yo'q. Aksincha, ularning tub ma'nosi hozirgi kunda yangi-yangi fikrlarni yuzaga keltirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. «Ад». III, 109 – перевод Н. Голованова. с. 34.
2. Об историке Бенедетто Варки см. вступительную статью. с. 6.
3. Джорджо Вазари. 12 Жизнеописаний - royallib.ru с. 3.
4. «Жизнеописание Тициана» см. в наст, издании. с. 47.
5. Любимов Л. «Искусство Западной Европы», Москва, 1982 с. 73.
6. Брагина Л. М. «Итальянский гуманизм: этические учения XIV-XV веков».- Москва. «Высшая школа», 1977. с. 295.
7. Вазинская Т. Я. «Искусство».- Минск: «Лимариус», 1997. с. 241.
8. Алпатов М. «Всеобщая история искусства».- М.: Просвещение, 1979. с. 477.
9. Любимов Л. «Искусство Западной Европы».- М.: Издательство «НАУКА», 1975. с. 562.
10. Лев Любимов “Искусство Западной Европы. Книга для чтения”. М., “ПРОСВЕЩЕНИЕ”, 1982г. с. 172.
11. Любимов Л. «Искусство Западной Европы».- М.: Издательство «НАУКА», 1975. с. 562.
12. Мультимедийная энциклопедия «ART. История искусств».- М.: Омикрон, 1996. с. 780.
13. Мультимедийная энциклопедия «Леонардо да Винчи».- М.: Е. М. М. Е. Interactive, 1996. с. 565.